

**SO'NGI SHAYBONIY HUKMDORLARDAN BIRI ABDULLAXON II  
DAVRIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR****Karimov Abduvali G'ofurjon o'g'li***Namangan davlat universiteti 2 – bosqich talabasi**Tel nomer: 88-143-11-09*

XVI asrning boshlarida bir vaqtlar Volga daryosi bo'yida tashkil topgan Oltin O'rda davlatidagi Shayboniyxon boshchiligidagi o'zbek ko'chmanchi qabilalari Temuriylar davlatini tor-mor qilib, O'rta Osiyoda o'z hukmronliklarini o'rnatadi. Shayboniylar Jo'ji sulolasidan to'qqizinchi hukmdor bo'lgan O'zbekxon ismiga nisbat berib, o'zlariga bir siyosiy qo'shma nom – o'zbek nomini qabul qilib olganlar. Aslida ular Ko'k O'rdaning sharqida, Volga bilan Orol dengizi orasida yashovchi turkmo'g'ul qabilalari edilar. Herman Vamberining ma'lumot berishicha, o'zbekning lug'aviy ma'nosi «shaxsan o'ziga mustaqil xo'jayin» degan ma'noni anglatadi. Demak, shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, o'zbek xalqining shakllanish ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi.

XVI asrning boshlarida Shayboniyxon boshchiligidagi o'zbek ko'chmanchi qabilalari Temuriylar davlatini tor-mor qilishda o'zlarining e'tibor va ishonchlarini Muhammad Shayboniyga qaratgan edilar, uni Shohbaxt deb ham atar edilar. Shayboniyxon otasi Burdoq (Shohbudog') Sulton bilan onasi Qo'zibegimdan yoshligida yetim qolib, ukasi Mahmud bilan birga otasining sodiq xizmatkori Qorachabekning himoyasida yashagan. Qorachabek bu shahzodalarga sadoqat bilan xizmat qilgan. Shayx Haydarning vafotidan so'ng Qorachabek ulg'aygan bu yetim shahzodalarni olib Abulxayr (Shayboniyxonning bobosi, o'zbeklarning hokimlaridan biri) oilasining dushmanlaridan himoya qilish uchun Sirdaryoning quyi taraflariga qochib ketishga majbur bo'ladi. Shayboniy ulg'ayib, ulug' bobosi Abulxayrxonning yo'qotgan shon-shavkatini qaytarmoq niyatida katta tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Yosh shahzoda kuchaygan o'zbek suvoriylariga boshchilik qiladi, so'ngra Temuriylarga qarshi kurashga o'tlanadi. Asta-sekin bobosi mulkini qayta tiklash uchun katta yurishlar boshlaydi. Keyinchalik g'oyatda kengayib ketgan Shayboniy mamlakati shu tarzda ta'sis etiladi va tariximizda o'chmas iz qoldirgan Shayboniylar sulolasiga asos solinadi.

Shayboniyxon va uning dastlabki vorislari davrida Samarqand poytaxtligicha qolavergan bo'lsa, XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib Buxoroning siyosiy markaz sifatidagi roli osha boshlaydi. Shayboniylar sulolasi Buxoro tarixida o'z o'rniga ega. Sulolaning Buxoroda hukmronlik qilgan sakkiz vakilidan faqat uchtasining – Ubaydullaxon (1533-1539), Abdulazizxon (1539-1549), Abdullaxon (1557-1598) nomlarini e'zoz bilan tilga olish mumkin. Ular davrida Buxoro yirik siyosiy, madaniy

markazga aylandi. Qator obidalar qad rostladi, shahar shuhrati ortdi. Shayboniylardan Pirmuhammadxon, Muhammadyor sulton, Burhon sulton, Abdulmo‘minxon kabi sohibi tojlar hukmronlik davrida esa aksincha, o‘zaro toj-taxt talashishlar, yakka hukmronlik da‘vosi, bir-biriga oqibatsizlik avj oldi.

Shayboniy vakillaridan Ubaydullaxon asos slogan Buxoro xonligi<sup>1</sup> Abdullaxon davrida o‘z qudrat cho‘qqisiga erishadi va u Movarounnahr, Xuroson hamda Xorazmni birlashtirgan markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo‘ladi.

Abdullaxon (to‘liq ismi Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad Xojag‘um Sulton ibn Abulxayrxon) 1534-yil Miyonqol shahrida tug‘ilgan, 1598-yil Ofarikent qishlog‘ida vafot etgan va Buxoro yaqinidagi Bahovuddin majmuasiga dafn etiladi. U O‘zbek davlatchiligi tarixida o‘chmas iz qoldirgan hukmdor shaxs hisoblanib, O‘zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yetuk hukumdori, davlat arbobi, sarkarda, ilm – fan, ma‘rifat, madaniyat homiysi<sup>2</sup>. Uning hayoti, siyosiy hayotga qadam qo‘yishi va Buxoro xonligida tutgan mavqei haqida bir qancha fikrlar yuritamiz.

Abdullaxonning otasi Iskandar Sulton o‘n besh yoshga to‘lganida Jonibek Sulton unga Samarqand So‘g‘dining eng so‘lim diyori bo‘lmish Ofarinkent viloyatiboshqaruvini topshirgan. Jonibek sulton hijriy 935 yili<sup>3</sup> pok Karmana shahrida o‘zajali bilan vafot etgach, Iskandar Sulton Miyonqoldan chiqib Karmanaga keladi va bu yerdagi hokimiyatni ham o‘z qo‘liga olib, Miyonqol va Karmanani boshqara boshlaydi<sup>4</sup>. Abdullaxon ibn Iskandarxon tug‘ilganida otasi Iskandarxon xali Ofarinkent hokimi edi. Yosh Abdullaxon tarbiyasi uchun dastlab Sayidbiy Jaloyirni otaliq qilib, oddiy xalq tabaqasidan bo‘lmish Amir Yormuhammadni “atka”si qilib tayinlaydi<sup>5</sup>. Keyinchalik u ham otasi bilan birga Karmanaga keladi va otasidan keyin ushbu hududlar boshqaruvi uning qo‘liga o‘tadi. Abdullaxon ibn Iskandarxon asta-sekin faol siyosat maydoniga kirib kela boshlaydi.

XVI asrning o‘rtalaridan boshlab Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik va ichki ziddiyatlar nihoyatda avj olib ketadi. Movarounnahrda merosiy mulk talashish tufayli rasman Buxoroga bo‘ysunadigan lekin amalda mustaqil bo‘lgan uchta xonlik – Samarqand (Ko‘chkunchixon avlodlari), Buxoro (Mahmud Sulton avlodlari) va Toshkent (Suyunchxo‘ja avlodlari) xonliklari vujudga kelgan edi. Ichki ziddiyatlar Ubaydullaxon vafot etgandan so‘ng yanada kuchayib ketdi.

<sup>1</sup>Мукминова Р., Агзамова Г. Бухоро хонлиги (амирлиги). // Узбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Коллектив монография. Т.: Шарк, 2001.

<sup>2</sup>AhmedovB. “Ozbekulusi” AbdullaQodiriynomidagixalqmerosinashr. “Nur” T., 1992. – B. 65.

<sup>3</sup>TaxminanMilodiy 1511-1512 yillar.

<sup>4</sup>MuhammadyoribnArabQatag‘an “Musaxxiral-bilod” / Forstilidantarjimavaizohlarmuallifil.Bekjonov. D.Sangirova. – T., Yangiasravlodi, 2009. – B. 207-208.

<sup>5</sup>O‘shaasar. – B.226.

Ko'chkunchixonning o'g'li Abdullaxonning xukmronligi olti oydan (1540) oshmadi. Uning vafotidan so'ng mamlakatda qo'shxokimlik xukm surdi: Buxoroda Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon (1540-1550), Samarqandda esa Ko'chkunchixonning uchinchi o'g'li Abdulatif (1540-1551) hokimiyatni qo'lga oldi. Shu yillari shayboniy sultonlarning toj-u taxt uchun talashishlari shu qadar kuchaydiki, na Abdulaziz va na Abdulatif kun sayin o'sib borayotgan siyosiy tarqoqlikning oldini olishga va viloyat xokimlarining boshboshdoqligiga barham berishga qodir bo'lmay qoldilar <sup>6</sup>. Bu vaqtda Toshkent va Turkistonda Navro'z Axmad (Baroqxon), Karmana va Miyonqolda Abdullaxonning otasi Iskandarxon, Balxda uning amakisi Pirmuxammadxon, Nasaf viloyatida Abdullaxonning amakivachchasi Qilich Qora Sulton, Xisor va Badaxshonda Ubaydullaxonning o'g'li Burxon Sulton xokim edilar <sup>7</sup>.

1550-yil Buxoro hukmdori Abdulazizxon vafot etgach, shayboniylar o'rtasida Buxoro taxti uchun kurash boshlanib, qariyb ikki yilcha davom etdi. Lekin uning o'rniga xon qilib ko'tarilgan Muxammadiyori sulton (Shayboniyxonning nabirasi Po'lod Sultonning o'g'li) xokimiyatni qo'lda tutib qololmadi. Bu orada Pirmuxammadxon Balxdan ot surib kelib, Buxoroni egalladi. Ammo uning hukmronligi ham uzoqqa bormadi. Bu paytdaoradan bir yilcha o'tgach, 1551-yili Toshkent xokimi Baroqxon va Samarqand xokimi Abdulatifxonlar boshqa bir necha sultonlar, xususan, Sulton Sayid, Muxammadiyori Sulton va Burxon sulton bilan ittifoqlashib, Nasaf, Karmana va Miyonqolni qo'lga kiritish uchun kurash boshladilar. Iskandar Sulton Karmanani tashlab ketdi va Amudaryodan o'tib Andhud va Shibirg'on tarafga qarab qochdi. Mana shunday og'ir kunlarda yosh Abdullaxon (u o'sha vaqtda 18 yoshda edi) Miyonqol qal'asini mustahkamlab, ittifoqchilarga qarshi kurashdi. Yosh Abdulla sulton o'zini hukumdor sifatida 1551- yil Karmanada bo'lgan jangda ilk bornamoyon qilgan. Lekin 12 kun davom etgan qamal sulh tuzish bilan tugadi. 1551-1552-yillar davomida Abdullaxon Miyonqolni qaytarib olish uchun xarakat qildi, lekin bu kurash biror natija bermagach, yana Balxga ketishga majbur bo'ldi. Shu tariqa Abdullaxon ibn Iskandar Sulton ham siyosat maydoniga kirib kela boshladi.

Pirmuxammadxon esa Buxoroni Muhammadiyori Sultonga topshirib, o'zi Balxga qaytdi <sup>8</sup>. Harbiy yurishlarida Abdullaxon dastlab amakisi Pirmuxammadxonning yordamiga ham tayangan. Keyinchalik, Pirmuxammadxon yosh Abdullaxonning tobora kuchayib borishidan cho'chidi va unga qarshi zimdan kurashdi. Pirmuxammadxon 1552-yili Abdullaxonni turli baxonalar bilan Balxda tutib qoldi, Nasafni esa O'zbek Sultonga in'om qildi. Lekin Abdullaxon yashirincha Balxdan chiqdi va o'sha yili Nasafni oldi. 1553- yil iyun oylarida Abdullaxon bilan Qilich Qora

<sup>6</sup>MuhammadyoribnArabQatag'an "Musaxxiral-bilod" / Forstilidantarjimavaizohlarmuallifil.Bekjonov. D.Sangirova. – T., Yangiasravlodi, 2009. – B.245-249.

<sup>7</sup>Muqminova R., Agzamova G. Buxoro xonligi (amirligi). – B. 106.

<sup>8</sup>Ahmedov B.A. Tarixdan saboqlar. – B. 263.

Sulton o'rtasida Avg'onak mavzesida jang bo'lib o'tadi va bunda Abdullaxonning qo'li baland keladi<sup>9</sup>. Ammo bir necha kundan so'ng Toshkent va Samarqand sultonlarining birlashgan qo'shini bu yerga yetib kelgach, Qarshini ularga topshirib Balxga chekinishga majbur bo'ladi. To'g'ri, Navro'z Ahmadxon Muhammadiyor Sulton va Burxon Sulton bilan birlashib Abdullaxonni Nasafda qamal qilganida, Pirmuhammadxon unga yordamga keldi, ammo qamal bartaraf qilingach, Abdullaxonning bo'lajak yurishlarida qatnashmay, yana Balxga qaytib ketdi. Astasekin Abdullaxon kuch to'plab, atrofiga o'z tarafdorlarini yig'a boshladi.

1551-1554-yillarda Buxoroda qo'shhokimiyatchilik hukm surdi, ya'ni Buxoroni ikki shayboniyszoda Muhammadyor sulton va Burhon sultonlar boshqarishdi. Har jihatdan noqulay bo'lgan bunday boshqaruv usuli uzoq davom etmasligi muqarrar edi.

Uch yil o'tgach, ikki hukmdor o'rtasidagi pinhona xusumat Burhon sulton foydasiga intiho topdi. Shu davr mobaynida Burhon sulton tarafdorlari orta borib, uni Muhammadyor sultonga qarshi qaray boshladilar. "Bir shaharda ikki hukmdor nima qiladi, toj-taxt sizga yarashadi" kabi so'zlar bilan uni yakka hukmronlikka da'vat etdilar. Nihoyat, Burhon sulton 1554-yil bir guruh tarafdorlari hamrohligida Buxoro Arkiga qilich yalang'ochlab kirib, Muhammadyor sultonni qatl etdi hamda shaharning yakka hukmdoriga aylandi. Lekin oradan uch yil o'tib bu qilmishi o'ziga qaytishini, o'zini bundan ham og'irroq qismat kutayotganini bilmasdi.

Burhon sulton uchun Buxoroni ushlab turish oson bo'lmadi. Buxoro da'vosini qilgan shayboniyszodalardan Sayyid Sulton, Navro'z Ahmadxon, Abdullaxonlar hujumiga bardosh berishga to'g'ri keldi. Sayyid sulton va Navro'z Ahmadxonlar hujum qilganda esa, Balxda turgan Abdullaxonga yordam so'rab murojaat qildi va buning evaziga unga Buxoroni topshirishini va'da qildi. Abdullaxon bu taklifni qabul qilib Buxoro tomonga qarab ot surdi. 1555-yil iyun' oyida Burhon sulton bir guruh arkoni davlatlar, nomdor savdogarlar va boshqa tabaqalar hamrohligida Shahri Islom mavzeida Abdullaxonga peshvoz chiqib, unga Buxoroning kalitini topshirdi. O'zi esa Qorako'l tomonga yuzlandi<sup>10</sup> va bir muddat shu yerda turdi. Oradan 15 kun o'tgach, Abdullaxonga nisbatan xoinlik yo'liga o'tib, itoat halqasidan chiqqanligini e'lon etdi hamda Buxoroni qayta qo'lga kiritish uchun kurash boshladi<sup>11</sup>. Romitan qal'asiga berkinib olib, qattiq qarshilik ko'rsatdi. Biror natijaga erisha olmagan Abdullaxon Buxoroni tashlab, Maymanaga qarab yo'l oldi. Burhon sulton esa Buxoroni egalladi.

U Buxoroda hukmronlik qilgan yillarda o'zi uchun kuchli ijtimoiy qatlam yarata olmadi. Xo'ja Islom Jo'yboriyga nisbatan esa ixlosi yo'q edi. Hatto bir bor Xo'ja Islom sultondan qattiq ranjib Xorazmga ketib qoldi. Lekin Burhon sulton qilgan ishiga

<sup>9</sup> Muhammadyor ibn Arab Qatag'an "Musaxxir al-bilod" / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi I.Bekjonov. D.Sangirova. – T., Yangi asr avlodi, 2009. –B. 228-229.

<sup>10</sup> Muhammadyor ibn Arab Qatag'an "Musaxxir al-bilod" / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi I.Bekjonov. D.Sangirova. – T., Yangi asr avlodi, 2009. –B. 229.

<sup>11</sup> O'shaasar. – B. 229-230.

pushaymon bo'lib, uni yana Buxoroga olib keldi. Bu kabi omillar esa uning hokimiyat tepasida uzoq vaqt hukmronlik qilishiga to'sqinlik qilardi. Bundan tashqari yosh va shijoatli Abdullaxon ham hokimiyatni undan tortib olish uchun mahkam bel bog'lagandi. Abdullaxon ibn Iskandarxon 1551-1556 yillar mobaynida bir necha bor Amudaryodan o'tib, Movarounnahrni qo'lga kiritishga urindi. Lekin Baroqxon uni har gal mag'lubiyatga uchratdi. U o'z hokimiyati hududini Buxoro tomonga va janubi-sharqda Qarshi va Shahrisabz tomonga kengaytirishga intilgan. Bu sa'y-harakat dastlab muvaffaqiyatsiz chiqqan, hatto 1556 -yil ota mulkini tashlab Maymanaga qochishga majbur bo'gan. U amakisi Balx hokimi Prmuhammaddan harbiy yordam olib, piri jo'ybor xojalaridan Xoja Muhammad Islom ko'magida Navro'z Ahmadxon, keyinchalik uning o'g'illari Darveshxon va Bobo Sultonlarga qarshi uzoq muddat kurash olib borgan. 1556-yil bahorida Abdullaxon Buxoroni egallash taraddudini ko'ra boshladi. Bundan voqif bo'lgan Burhon sulton endi sobiq muxolifi Navro'z Ahmadxonga yordam so'rab murojaat qildi. Navro'z Ahmadxon ikki ming kishilik qo'shin hamrohligida Buxoro tomonga yuzlanib, Durbay mavzeiga kelib to'xtadi va shu yerda Burhon sulton bilan muzokara boshladi. Uchrashuv paytida Burhon sulton Navro'z Ahmadxonni ko'pdan-ko'p sovg'alar bilan siyladi. Buning evaziga Navro'z Ahmadxon Burhon Sultonning o'ziga nisbatan tutgan g'animlik yo'lini, bevafoqligini kechirdi. Shundan so'ng ular ittifoq bo'lib Abdullaxon qo'shinlariga qarshi kurash boshladilar. Lekin bo'lib o'tgan to'qnashuvlardan biror natija chiqmagach, urushuvchi tomonlar jang harakatlarini to'xtatdilar. Buxoro yana Burhon sulton qo'lida qoldi.

Navro'z Ahmadxon 1556 -yil vafot etgach, Abdullaxondarhol Karmana va Shahrisabzda o'z hukumronligini tiklaydi va Movarounnahrni qisman bo'lsa-da birlashtirish yo'lida kurashni davom ettiradi. Bu kurashda bir qancha ko'chmanchi o'zbek qavmlari, jumladan, shirin, qushchi, o'torchi, kenagas, yuz, jaloyir, mo'jor, qipchoq, ming, bahrin va boshqa ko'chmanchi o'zbek qavmlari, ruhoniylar va din peshvolari, xususan, Jo'yboriy xojalar uni qo'llab-quvvatladilar <sup>12</sup>.

Abdullaxonning bu g'alabasiga Movarounnahrda boshqa shayboniy sultonlar bilan Navro'z Ahmadxon va uning avlodlari o'rtasida kuchayib ketgan ziddiyatlar ham yordam berdi. Abdullaxon Baroqxonning o'g'li Bobo sulton va Ko'chkunchixonning nabirasi Javonmardalixon o'rtasida Samarqand uchun boshlanib ketgan o'zaro urushlardan ham ustamonlik bilan foydalandi. U Gadoy Sulton va Javonmardalixon bilan ittifoqlashib, Bobo Sulton va unga ko'makka kelgan Toshkent hokimi Darvishxonni Ilono'tti mavzesida tor-mor keltirdi <sup>13</sup>. Bu g'alaba Abdullaxonga Nasaf, Chorjo'y va Movarounnahrning boshqa viloyatlarini egallashi uchun yo'l ochib berdi.

<sup>12</sup>Qarang: Тураев Х. Роль Джуйбарских ходжей в общественно-политической и духовно-культурной жизни Бухарского ханства XVI-XVII- веков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. Ташкент, 2007. – В. 28.

<sup>1313</sup> Hofiz Tanish al-Buxoriy "Abdullanoma" / fors tilidan S.Mirzayev tarjimai. Ilmiy muharrir, nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi B.Axmedov. – T.: "Sharq". 1-kitob, 1999. – B.137-138.

1557-yil yozida Buxoro yana Abdullaxon tomonidan qamal etildi. Burhon sulton uchun endi hayot-mamot jangi boshlandi<sup>14</sup>. Qamal uzoqqa cho‘zilavergach, Burhon sulton o‘z mahramlari bilan kengashib, Abdullaxondan sulh so‘rashni va bu ishda Xo‘ja Islomni vositachi qilishni rejalashtirdi. Xo‘ja Islomning Burhon sultonga xayrixohligi yo‘q edi. Manaqib sa‘diya qo‘lyozma asarida qayd etilishicha, Xo‘ja Islom o‘z yoron va mahramlari huzurida: Burhon sultonni Buxoro taxtidan chetlashtirmasam pushti padarimdan bo‘lgan emasman degan ekan. Xo‘ja Islomning Burhon sultonga bo‘lgan xusumati qanchalik kuchli bo‘lmasin, u fuqaro osoyishtaligini ta‘minlash zarurligini chuqur anglab, ikkala tomonni murosaga keltirishga bel bog‘ladi va Burhon sulton taklifini qabul qildi. Ravzat ar-rizvon qo‘lyozma asari ma‘lumotlariga ko‘ra, Burhon sulton Xo‘ja Islomdan Abdullaxon oldiga borib sulh so‘rashni iltimos qilganda u shunday degan ekan: Musulmonlar osoyishtaligi uchun oralaringda sulh tuzmoqchimiz. Sulhni qabul qilmasang Xo‘ja Bahouddin Naqshband pirlariga giriftor bo‘lasan. Shunday deb ko‘rsatkich barmog‘ini xuddi nayzadek qilib Burhon sultonning bo‘yniga qo‘ydi, so‘ng Buxoroning Mozor darvozasidan chiqib Abdullaxon qarorgohiga ravona bo‘ldi. Abdullaxon huzuriga kelib sulh tuzishga ko‘ndirdi. Erta saharda Burhon sultonning o‘ldirilganligi to‘g‘risida xabar tarqaldi. Xo‘ja Islom muzokara olib borish uchun Abdullaxon huzuriga kelgan paytida qushchi urug‘idan bo‘lgan Mirzabiy degan kishi Burhon sulton oldiga borib, uni turli yo‘llar bilan aldab o‘z uyiga kelishga ko‘ndirdi va uyiga olib kelib kallasini tanasidan judo qildi. Hukmdorning kesilgan boshi bir necha muddat Ark darvozasi tepasiga osib qo‘yildi. Keyinchalik nayzaga ildirilib, Abdullaxon oldiga olib kelindi va uning oyog‘i ostiga tashlandi. Bu voqea 1557-yil sha‘bon oyining juma kuni sodir bo‘ldi, Burhon sulton kimning maxfiy buyrug‘i bilan o‘ldirilganligi to‘g‘risida tarixiy manbalarda aniq ma‘lumot uchramaydi. Lekin hukm qanchalik shafqatsiz bo‘lmasin, u adolatli edi. Zero, Burhon sulton qatlidan so‘ng hokimiyatni egallagan Abdullaxon Buxoro tarixida yangi davrni boshlab berdi.

Abdullaxon ibn Iskandarxon Buxoroni qo‘lga kiritgach, uni o‘z poytaxtiga aylantiradi. 1557-1561-yillarda amakisi Pirmuhammadni, 1561-1583-yillarda esa otasi Iskandarxonni oliy hukmdor darajasiga ko‘tarib, o‘zi esa 1583-1598-yillarda rasman “xon” rutbasi bilan mamlakatni boshqaradi. Garchand faoliyatining dastlabki yillaridan o‘zini xon deb e‘lon qilmagan bo‘lsa-da, amalda hokimiyat to‘laligicha Abdullaxon qo‘lida edi. Abdullaxon (1557-1598 yillar) xon bo‘lib turgan davrda Buxoroni Shayboniylar davlatining poytaxtiga aylantiradi. Mohir sarkarda va diplomat bo‘lgan Abdullaxon mamlakatning tarqoqligini tugatishga va o‘z yerlarini kengaytirishga intiladi. Mamlakatning hududini kengaytirish uchun 1574- yil Balxni, 1578- yil

<sup>14</sup> Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an “Musaxxir al-bilod” / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi I.Bekjonov. D.Sangirova. – T., Yangi asr avlodi, 2009.

Samarqandni, 1582-yil Toshkent, Sayram va Turkistonni, 1583-yili esa Farg'onani egallaydi. Asta-sekin hujumini kengaytirib 1582- yil Dashtga yurish qilib Ulug' tog'ga qadar borgan. 1583-yil Iskandar Sulton vafot etgach, mamlakatni o'z nomidan boshqara boshlaydi. Markaziy hokimiyatga qarshi 1583-yil ko'tarilgan Maymana, shuningdek 1584-1585-yillarda Badaxshondagi tartibsiz g'alayonlar bostirildi va bu hududlar ham Abdullaxon boshqaruvi ostiga o'tdi. Xorazmga esa ikki marta yurish uyushtirildi. 1594-1596-yillarda Xorazmga qo'shin tortadi va u yerda markaziy hokimiyat qayta tiklandi.

Abdullaxon II mamlakatni yaxlit holda tiklash uchun qo'shni davlatlarga ham qarshi hujumlar qilgan. Turkiya Movaraunnahrda o'z ta'sirini kuchaytirish maqsadida Abdullaxon ibn Iskandarxonga qarshi Bobo sultonga yordam bergan. Shuningdek, Bobo sulton turk askarlari yordamida Abdullaxonga qarshi Nasaf yonida jang qilgan<sup>15</sup>.

Bundan tashqari, Abdullaxon safaviylar bilan Xurosondagi G'ilon shahri uchun kurashib, uni ham o'z davlati tasarufiga qo'shib oladi. Shu o'rinda Sharqiy Turkistonga qilingan yurishlari natijasida Qashqar va Yorkent viloyatlarini tasarufiga o'tkazgan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Boburiylar ham Badaxshon, Shimoliy Afg'oniston va Xuroson uchun Abdullaxonga qarshi ilg'or kurashlar olib borganlar. Ayni damda Abdullaxon ham ularga qarshi Sind va Kashmirni 1583-1586- yillarda egallab, davlatning janubiy chegaralarini mustahkamlaydi<sup>16</sup>.

Shunday qilib, XVI asr oxiriga kelib Buxoro xonligi Abdullaxon davrida markazlashgan ulkan davlatga aylandi. Mamlakat hududi sharqda Qashqar bilan chegaradosh bo'lgan, G'arbiy chekkasi Orol va Kaspiy dengizi sohillarigachaborib tutashgan, xonlikning shimoliy chegaralari Turkiston va Sayramdan, Janubda Xurosonning sharqiy qismgacha bo'lgan yerlardan iborat edi.

Abdullaxon davrida Buxoro haqiqatdan ham O'rta Osiyoning siyosiy va madaniy markaziga aylana boradi. Bu borada Shoh Mahmud Churosning «Tarix» asarini tarjima qilgan O.F.Akimushkin asarga yozgan so'zboshisida «...bu yerda (Yorkent xonligida) qo'shni Movarounnahrda gichalik markazlashgan davlat yo'q edi», deb fikr bildirgan<sup>17</sup>. Sharqshunos olim V.V.Bartold esa «Abdullaxon II boshqaruvi kamdan-kam sodir bo'ladigan voqea bo'lib, garchi u o'z hokimiyatini qattiqqo'llik va harbiy kuch asosida barpo etgan bo'lsa-da, nafaqat butun Movarounnahrni, balki Xuroson va Xorazmni birlashtirib, kuchli davlat tuzdi», - deya ta'kidlagan<sup>18</sup>.

Abdullaxon hayotining so'ngi yillarida o'g'li Abdulmo'min bilan chiqishmay qolishi tufayli Abdulmo'min 1582 – yilning kuzida Balxni otasi nomidan boshqara

<sup>15</sup> O'zbekiston Milliy ensklopidiyasi . I tom . "Dav milliy nashriyoti" T. 2000. – B. 32.

<sup>16</sup> Мукминова Р., Агзамова Г. Бухоро хонлиги (амирлиги). // Узбекистон давлатчилиги тарихи очерклари. Коллектив монография. Т.: Шарк, 2001.

<sup>17</sup> Qarang: Shayx Muhammad Churas. Xronika. – B. 169.

<sup>18</sup> Bartold V.V. Узбекские ханства / Соч. В 9 т. - Москва: 1963. Т. II (1). С. 269.

boshlaydi. Iskandarxon davrida Abdullaxon haqiqiy amalda hukumdor bo'lgani kabi, Abdulmo'min ham keksaygan otasiga nisbatan shunday mavqeini egallamoqchi edi. Faqat ulomalarning aralashuvi tufayli ota-bola o'rtasida ochiq kurash harakatlari boshlanmagan va Abdulmo'min otasiga bo'yin egishga majbur bo'lgan. Ular o'rtasidagi munosabat keskinlashganidan xabar topgan qozoq xonlaridan Tavakkalxon Toshkent viloyati va Toshkent – Samarqand oralig'idagi yerlarga bostirib kirib, unga qarshi yuborilgan qo'shinni yenggan. Unga qarshi safarga otlangan Abdullaxon Samarqandga yetganda vafot etgan.

